

«Туркестанские ведомости» GAZETASIDA SAMARQAND IJTIMOYIY VA QISHLOQ XO'JALIGI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR

Rustamov Sh.S (SamDU magistranti)
Ergashev B.E (SamDU Ilmiy rahbar)

Ushbu maqolada Samarqand ijtimoiy va qishloq xo'jaligi haqida ayrim ma'lumotlarning «Туркестанские ведомости» gazetasida yoritilganligi tahlil etilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki podsho Rossiya hukmronligi davrida ham Turkiston hududida, xususan, Samarqandning ayrim tumanlarida aholi uchun bayramlar tashkil qilib turildi. Bundan ko'zlangan maqsad aholi hayotiga chuqurroq kirib borish ularni iloji boricha ko'proq ekspluatatsiya qilish edi, ya'ni ular tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarga ko'proq ega bo'lish edi.

Shu maqsadda bir qator tadbirlar o'tkazib turilgan bo'lib, ular aholi ongiga ta'sir etmay qolmagan. Xususan «Туркестанские ведомости»ning 1901-yil 5-sonida M.Virskiy tomonidan berilgan ma'lumotdan ham buni bilib olish mumkin.

Unda quyidagicha xabar beriladi: << 4-yanvar kuni Kattaqo'rg'ondagi rus-tuzem maktabida bolalar uchun yangi yil (archa) bayrami o'tkazildi. Unda 42 nafar rus, 16 nafar mahalliy bolalar, bundan tashqari maktab yoshidagi ko'plab bolalar ham ishtirok etishdi. Bayram kechki soat 6:00 dan 11:00 gacha davom etdi. Unda shaharning bir qator obro'li insonlari ham qatnashdi. Xususan 94 yoshli Kattaqo'rg'on shahar oqsoqoli ham qatnashib bolalarga shirinliklar ulashdi. Ularni osh bilan mehmon qildi. 14 nafar kam t'minlangan bolalar kiyim kechak bilan ta'minlandi. Bu bayram xarajatlari 150 rublga tushdi>>¹.

Ko'rinib turibdiki bu bayram tadbiri ham bolalar va ularning ota onalari uchun o'tkazilgan. Bayramda asosan rus bolalar ishtiro etishgan. Podsho hukumati vakillari sarflanayotgan har bir rublni hisob kitob qilib ketishgan. Demak bayram xarajatlari oldindan belgilanib, uning qanday o'tishi hisobga olinmagan.

Samarqand hududida qadimdan tamaki va tamaki mahsulotlari yetishtirib kelingan. Hozirgi kunda viloyatning Urgut tumani tamaki mahsulotlari yetishtirishga moslashtirilgan. Bunga sabab tabiiy iqlim va namlikning mahsulotga ta'siridir. Tamaki yetishtirish qishloq xo'jaligida eng mashaqqatli ishlardan hisoblanad. Chunki tamaki shirasi, uning poyasi va bargidagi zaharli moddalar inson hayoti uchun zararlidir. Hozirgi kunda Urgut tumanida

¹ М. Вирский- из Каттакургона «Туркестанские ведомости» 1901 г. 18 январ. № 5 стр 22

yetishtiriladigan tamaki navlari ichida “Izmir” navi eng zaharlisi hisoblanadi. Bu tamaki navini yetishtirganlar ham buni bilishadi, lekin baribir ekishadi. Qishloq xo’jaligi, iqlimi shunga mosligi uchun bo’lsa kerak. Xo’sh podsho Rossiyasi davrida ham tamaki yetishtirish uchun sharoit bo’lganmi degan savol tug’ilganda quyidagi ma’lumotga e’tibor qaratsak foydadan holi bo’lmadi.

1868-yilgi ma’lumotlarga qaraganda Kattaqo’rg’onda oq va ko’k tamaki navlari yetishtirilgan. Hududning Beklar kvartalida yashovchi mang’it urug’i dehqonlari tomonidan yetishtirilgan. Kattaqo’r’onning Dam-ariq, Qal’a-qo’rg’on, Xo’ja-ariq volostlarida ham tamakining ikki xil turidan yetishtirilgan. Hududning har bir desyatina yeridan 96 pud dan 125 pudgacha tamaki yetishtirib olingan. Ko’k tamaki oq tamakiga nisbatan doim ko’proq yetishtirilgan. Chunki ko’k tamakidan nos tayyorlanar edi.

1900-yilda mahalliy tamaki xo’jaligiga qiziquvchilar yana quyidagi hududlarda mavjud edi va ular yetishtirgan tamaki hajmi quyidagicha

№	Oq tamaki			
	Hudud	Ekin maydonlari hajmi (desyatina)	Mahsulot hajmi (pud)	Mahsulot narxi. Har bir pudga
1	Kattaqo’rg’on	100	10000	4 rubldan
2	Qal’a-qo’rg’on	25	2500	4 rubldan
3	Dam ariq	15	1500	4 rubldan
4	Xoja ariq	10	1000	4 rubldan

№	Ko’k tamaki			
	Hudud	Ekin maydonlari hajmi (desyatina)	Mahsulot hajmi (pud)	Mahsulot narxi. Har bir pudga
1	Kattaqo’rg’on	150	15000	6 rubldan
2	Qal’a-qo’rg’on	100	10000	6 rubldan
3	Dam ariq	8	800	6 rubldan

Jami 408 desyatina yerga tamaki ekilgan bo'lib, 40800 pud hosil sotilgan. Sotilgan mahsulotdan tushgan mablag' 214800 rublni tashkil etgan. Har bir desyatina 350 rubl sof foyda olingan. Tamaki plantatsiyalari esa desyatina 1200 rublgacha narxda sotilgan. Yetishtirilgan tamaki terilgan quritilgan va katta qoplarga solib bozorda sotilgan.

Buxoro, Chorjo'y, Marv va Xiva hududlaridan xaridorlar kelib tamaki sotib olishgan. Yetishtirilgan tamaki terilgan quritilgan va katta qoplarga solib bozorda sotilgan.²

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. М. Вирский- из Каттакургана «Туркестанские ведомости» 1901 г. 18 январ. № 5 стр 22.
2. И.Вирский-Несколько слов о табачных плантациях в Катта-курганском уезд. «Туркестанские ведомости» 1901 г. 3-июня. № 44. стр 235.

² И.Вирский-Несколько слов о табачных плантациях в Катта-курганском уезд. «Туркестанские ведомости» 1901 г. 3-июня. № 44. стр 235